

SHARQSHUNOSILK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

1

2025

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 1, 2025



Журнал Ўзбекистон Республикаси Тошкент шаҳар матбуот ва ахборот бошқармаси
рўйхатидан қайта ўтган (№ 02-0053, 26.09.2014 й.) – ISSN 2181 – 8096

Бош муҳаррир – Рихсиева Гулчеҳра Шавкатовна
филология фанлари номзоди, профессор

Таҳрир хайъати

Д. Сайфуллаев	<i>тарих фанлар доктори, профессор (бош муҳаррир ўринбосари)</i>
Д. Мухиддинова	<i>филология фанлари доктори (масъул котиб)</i>
А. Маннонов	<i>филология фанлари доктори, профессор</i>
Р. Ходжаева	<i>филология фанлари доктори, профессор</i>
Ш. Шомусаров	<i>филология фанлари доктори, профессор</i>
Қ. Омонов	<i>филология фанлари доктори, профессор</i>
У. Мухибова	<i>филология фанлари доктори, профессор</i>
Х. Хамидов	<i>филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)</i>
Б. Абдуҳалимов	<i>тарих фанлари доктори, профессор</i>
А. Ходжаев	<i>тарих фанлари доктори, профессор</i>
М. Исроқов	<i>тарих фанлари доктори, профессор</i>
А. Дониёров	<i>тарих фанлари доктори, профессор</i>
Х. Файзиев	<i>тарих фанлари номзоди, доцент</i>
Р. Жумаев	<i>сиёсий фанлар доктори, профессор</i>
Ш. Ёвқочев	<i>сиёсий фанлар доктори, профессор</i>
Н. Абдуллаев	<i>сиёсий фанлар доктори, доцент</i>
А. Ваҳобов	<i>иқтисод фанлари доктори, профессор</i>
Р. Абдуллаев	<i>иқтисод фанлари доктори, профессор</i>
И. Мавланов	<i>иқтисод фанлари доктори, профессор</i>
Д. Пўлатова	<i>фалсафа фанлари номзоди, профессор</i>
Р. Баходиров	<i>фалсафа фанлари доктори, профессор</i>
Э. Иззетова	<i>фалсафа фанлари доктори, профессор</i>
Г. Глизон	<i>АҚШнинг New Mexico университети профессори</i>
А. Шоназарова	<i>АҚШнинг Колумбия университети профессори</i>
Оно Масаки	<i>Япониянинг Цукуба университети профессори</i>
Ли Джи Ин	<i>Корея Республикасининг Ханжук чет тиллар университети профессори</i>
В. Месамед	<i>Исроилнинг Қуддус университети профессори</i>
А. Гурер	<i>Туркиянинг Анқара университети профессори</i>
А. Воробьев	<i>Россия Фанлар академияси, Шарқшунослик институти катта илмий ходими</i>
Г. Авда	<i>Миср Араб Республикасининг Хелвон университети профессори</i>
С. Курайм	<i>филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)</i>
А. Тоҳир	<i>Миср Араб Республикасининг “Ал-Ҳивар” сиёсий тадқиқотлар маркази директори</i>
Ли Синьвэй	<i>Хитой Ҳалқ Республикасининг Шэньси универтитети профессори</i>
Х. Байдемир	<i>Туркиянинг Отатурк университети профессори</i>

Нашрга тайёрловчилар:

Ж. Исмоилов, А. Зиёдов, Ш. Аскарова, Л. Хамдамзода, Ҳ. Сулаймонова

Журнал докторлик диссертациялари юзасидан илмий мақолалар чоп этилиши
лозим бўлган илмий нашрлар рўйхатига Ўзбекистон Республикаси Олий
Аттестация Комиссияси томонидан киритилган.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz

© Тошкент давлат шарқшунослик университети, 2025



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

Saydganiyeva G. Navoiyxonlik va Navoiy ijodiy an'alarining Qo'qon adabiy muhiti rivojida o'rni	4
Yuldasheva H. Milliy identlikni shakllantirish va rivojlantirishda arab ma'rifatparvarlarining roli.....	16

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

Хамидов X. «Анор» ҳикояси турк ва рус тилларида	25
Zakirova U. Ingliz o'zlashmalarining urdu tiliga kirib kelishida tarixiy omillarning ahamiyati.....	35
Abbasova D. The comparative study on personal pronouns in Korean and Uzbek "Focusing on Uzbek learners"	46
Sayed Mohamed Ahmed Korayem. Call for the use of intermediate language in teaching Arabic under the Corona pandemic, its foundations and problems.....	55
Abdurashidova N. Yangi davr Vyetnam hikoyanavisligining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	65
Fayziyeva A. Vatan konseptining lingvomadaniy xususiyatlari	77
Nazrullayeva G. "Bir qizga ming oshiq" romanidagi ayol va erkaklar nutqining o'ziga xosliklari va uning tarjimada berilishi.....	85

MANBASHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ // SOURCE STUDIES

Malikov A. Alisher Navoiyning arabiy misrali g'azallar	94
Turdixojayeva M. Buyuk ipak yo'lida joylashgan qadimgi farg'ona shaharlarining o'rganilishi va turizm salohiyati.....	106
Muxtarov T. Ибн Баттута – мусульманский Марко Поло	114

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Davlatova S. O'zbekiston va Xitoy: millatlararo munosabatlar sohasida hamkorlikning yangi davri	124
Sadibaqosev H. Jahon siyosatida aqsh-xitoy raqobati: global boshqaruv, diplomatiya, xavfsizlik va iqtisodiy munosabatlar.....	134
Muydinov D. Yevropa ittifoqining siyosiy jarayonlariga migratsiyaning ta'siri.....	145
Ibragimov Sh. Эволюции установление и развитие дипломатических отношений между Королевством Саудовская Аравия и Республикой Узбекистаном.....	156
Arapov Sh. Tashqi siyosatda "Raqamli diplomatiya" fenomeni va uni tadqiq etish metodologiyasi	165
Mamadjonov A. Yumshoq va aqlli kuch: zamonaviy xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosat strategiyalari sifatida	175
Xodjimuratova D. Eron siyosiy tizimida teokratik institutlarning o'rni.....	185



ABDURASHIDOVA NOZIMAXON

O'qituvchi, TDSHU

YANGI DAVR VYETNAM HIKOYANAVISLIGINING G'ÓYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqola XX asr boshlarida Vyetnamda tarixiy adabiy muhit, ushbu muhitda yaratilgan hikoyalar tahliliga asoslangan.

XX asrning birinchi yarimida ijod qilgan yozuvchilarning adabiy merosi, ijodi, hususan, ular yaratgan yangi hikoyalar keng tahlil qilingan bo'lib, har bir tahlil yordamida mualliflarning badiiy mahoratini o'ziga xos ekanligini ochib berishga harakat qilingan.

Maqolada biz XX asr boshlarida Vyetnam hikoyasi, xususan, Nguyen Kong Xoan va Nam Kao qalamiga mansub bir nechta hikoyalarning o'ziga xos jihatlarini ko'rishimiz hamda yozuvchilar ijodida yangi yo'nalishlar bilan yaqindan tanishishimiz mumkin. Shuningdek, hikoyalarni tahlil qilish jarayonida, yozuvchilar har bir asari orqali Vyetnamning ma'naviy va madaniy qadriyatlarini, an'analariyu urf-odatlarini chiroyli va mohirona tasvirlashga harakat qilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiy aloqalar faol harakat qilayotgan sharoitda har bir xalq, har bir millat uchun ta'sirlar mojarosida o'zligini saqlab qolish o'ta muhim masaladir. Chunki ana shunday umumjaxon adabiy aloqlar ta'siri natijasida Vyetnam adabiyotiga G'arbdan kirib kelgan adabiy yo'nalishlar va oqimlar katta ta'sir ko'rsatdi. Shu asnodan XX asr birinchi yarmida ijod qilgan vyetnam yozuvchilari Nguyen Kong Xoan va Nam Kao zamonaviy oqim va badiiy ifoda uslublaridan oqilona foydalangan holda Vyetnam xalqining o'ziga xos dunyoqarashi, milliy xususiyatlari, turmush tarzi, qadriyatlari hattoki diniy o'y-fikrlarining ahamiyatli jixatlariga mutanosib bo'lgan yangi hikoya va novellalar yaratgan ilk yozuvchilardan hisoblanadilar. Ushbu maqolada Nguyen Kong Xoan va Nam Kao bir nechta hikoyalari misollar yordamida tahlil qilingan. Tahlilga tortilgan barcha misollar ijodiy metod va yo'nalishlarning xilma-xilligi hamda ijodkor uslubining o'ziga xosligini yanada ochib beradi. Zero, har bir asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ularning diologlari, shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi.

Tayanch so'z va iboralar: hikoya, oqim, yo'nalish, romantizm, realizm, tanqidiy realizm, istehzo, uslub, obraz, grotesk.

Аннотация: Данная статья основана на анализе историко-литературной среды Вьетнама начала XX века, рассказов, созданных в этой эпохе.

Литературное наследие и творчество писателей, творивших в первой половине XX века, особенно созданные ими новые рассказы, широко анализировались, и с помощью каждого анализа делалась попытка раскрыть уникальное художественное мастерство писателей.

В статье мы можем увидеть отличительные стороны вьетнамской истории начала XX века, в частности, несколько рассказов, написанных Нгуен Конг Хоаном и Нам Као, а также познакомиться с новыми тенденциями в творчестве



писателей. Также в процессе анализа рассказов хорошо видно, что писатели через каждое свое произведение старались красиво и умело описать духовные и культурные ценности, традиции и обычаи Вьетнама.

В контексте активных литературных связей для каждой нации очень важно сохранить свою идентичность в конфликте влияний. Потому что в результате влияния таких универсальных литературных отношений литературные течения и течения, возникшие на Западе, оказали большое влияние на вьетнамский роман в рамках художественного мышления. В то же время вьетнамские писатели Нгуен Конг Хоан и Нам Као, писавшие во второй половине двадцатого века, мудро использовали современные течения и художественные выражения для создания новых рассказов и рассказов, которые соответствовали мировоззрению вьетнамского народа, национальным особенностям, образу жизни, ценности и даже важные аспекты религиозной мысли. В этой статье на примерах анализируются несколько историй Нгуен Конг Хоана и Нам Као. Все проанализированные примеры в дальнейшем раскрывают разнообразие творческих приемов и направлений, а также специфику творческого стиля. Ведь сцены жизни, изображенные в каждом произведении, межличностные отношения, их диалоги, а также неповторимый художественный стиль писателя очень естественны и искренны.

Опорные слова и выражения: сюжет, течение, режиссура, романтизм, реализм, критический реализм, ирония, стиль, образ, гротеск.

Abstract. This article is based on the principles of formation and development of New Age Vietnamese short stories. In it we can see the peculiarities of the Vietnamese short story of the early twentieth century, in particular, several short stories by Nguyen Kong Xoan and Nam Kao, and get acquainted with new directions in the writer's work. Also, in the process of analyzing the short stories, it is obvious that the writer tried to beautifully and skillfully depict the spiritual and cultural values, traditions and customs of Vietnam through each of his works.

In the context of active literary relations, it is very important for every nation to preserve its identity in the conflict of influences. Because as a result of the influence of such universal literary relations, the literary trends and currents that emerged in the West had a great influence on the Vietnamese novel within the framework of artistic thinking. At the same time, the Vietnamese writer Nguyen Kong Xoan and Nam Kao, who wrote in the twentieth century, wisely used modern trends and artistic expression to create new stories and short stories that were in line with the Vietnamese people's worldview, national characteristics, lifestyle, values and even important aspects of religious thought. is one of the writers. In this article, several stories by Nguyen Kong Xoan and Nam Kao are analyzed using examples. All the examples involved in the analysis further reveal the diversity of creative methods and directions, as well as the specificity of the creative style. After all, the scenes of life depicted in each work, interpersonal relationships, their dialogues, as well as the writer's unique artistic style are very natural and sincere.

Keywords and expressions: plot, flow, direction, romanticism, realism, critical realism, irony, style, image, grotesque.



Maqsad va vazifalar: Yangi davr Vyetnam hikoyasining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini o'rganish bizga o'sha davr, ya'ni XX asr birinchi yarimida Vyetnam adabiyotidagi o'zgarishlar, adabiy jarayondagi yangilanishlar, an'anaviy realizm va romantizmning o'zgacha tus olishi, yangi ko'rinishlari va tamoyillarini aniqlashga, tushunishga, hamda ularni bir-biridan ajrata bilishga yordam beradi, adabiy muhitni tasavvur qilishga imkon yaratadi.

Natijalar va mulohazalar:

Vyetnam xalqi boshqa Sharq xalqlari singari qadim zamonlardayoq yuksak taraqqiy etgan madaniyatga ega bo'lgan.

Shuningdek, Vyetnam xalqining og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan doston va qo'shiq shakllaridagi boy folklori bo'lgan.

Mulkdorlarning jabr-zulmlariga qarshi doimiy xalq g'alayonlari, bosqinchilarning beboshliklari va yangi hujumlar xavf-xatari Vyetnam xalqining og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Xalq ijodiyotining qahramoni hamma vaqt yovuz odamlarga va jinlarga qarshi kurashib kelgan bahodir sifatida ifodalangan. Ko'pincha bu bahodir qahramon kambag'al-dehqon obrazida tasvirlanar va sotqin-savdogar yoki yer mulkdoriga qarama-qarshi qo'yilar edi.

Vyetnamliklar XIII asrgacha xitoy yozuvidan foydalanganlar.

Ushbu yozuv to XX asrgacha rasmiy qo'llanilib kelingan. XII–XIII asrlarda “nom” (“ommabop”) deb ataluvchi milliy yozuv vujudga kelib, dastlabki milliy adabiyot namunalari shu yozuvda yaratilgan. Keyinchalik vyetnam yozuvi hozirgi shakldagi lotinlashtirilgan “kuok ngi” yozuvi qabul qilingunga qadar doimiy ravishda o'zgarib turgan.

XV asrda Vyetnam mustaqil davlat bo'lib olgandan keyin siyosiy va iqtisodiy jihatdan tez rivojlanish davriga kiradi. Shu bilan bir vaqtda madaniy yuksalish davri ham boshlanadi. Bu birinchi navbatda Vyetnam adabiyoti hamda san'atining uyg'onish va rivojlanishida o'z aksini topgan.

Vyetnamning madaniy hayotida XVII asrning o'rtalarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini uchratish mumkin. Yevropalik missionerlar sa'y-harakatlari bilan yaratilgan vyetnam tilining yangi lotinlashtirilgan “kuok ngi” yozuvini tarqalishi bunga isbotdir. 1651-yilda ular tomonidan yangi yozuvga asoslangan uch tildagi “Annamit lug'ati” yaratiladi. Yangi yozuv hali takomillashgan bo'lmaganligi sababli, uni faqat missionerlik maktablarida uchratish mumkin edi.

Vyetnam adabiyoti XVIII asrga kelibgina ravnaq topa boshlaydi. Xuddi shu vaqtda vyetnam poeziyasi va prozasining ajoyib namunalarida milliy adabiy til batamom shakllanadi: ko'zga ko'ringan qator yozuvchi va shoirlar maydonga keladi.

Vyetnamdagi adabiy tilning tarixi ko'p qatlamligi bilan o'ziga xosdir.

XVIII asrdan boshlab xanvan (venyaning vyetnamlashgan turi)dagi adabiyot va “ti nom”dagi adabiyot parallel tarzda rivojlanib kelgan. Milliy lotinlashtirilgan “kuok ngi” yozuvini oson o'rganishga keng va tez sur'atda bilimlarni egallash



garovi sifatida qaralgan. Yangi yozuvni o'zlashtirish esa ma'rifatparvarlik harakati bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida iqtidorli tarixchi-olim, yozuvchi, tarjimon, sharhlovchi, lingvist Chiong Vin Ki (1837–1898) boshchiligidagi ma'rifatparvarlarning bir guruhi yangi yozuvni keng targ'ib qila boshlaydilar. “Kuok ngi” yozuvining tatbiq etilishi kitobxon auditoriyani ancha demokratlashtirgan. “Ti nom” yozuviga qaraganda “kuok ngi” yozuvini o'rganish oson bo'lgan. Ma'rifatparvarlar adabiyot va folklorning mashhur va ko'zga ko'ringan “ti nom”dagi namunalarni “kuok ngi”ga transliteratsiya qila boshlaydilar. Shu davrda yangi yozuvda vyetnam va xitoy klassikasining asarlari nashr etilgan (“To'rt kitob”, “Kiyu”, “Lyuk van Tiyan” va boshqalar). Chiong Vin Ki ilk bor vyetnam kitobxonini G'arb adabiyoti bilan tanishtirgan. U 1856-yilda “Lafonten masallari”ni she'r qilib, 1887-yilda Fenelonning “Telemak sayohati”ni “kuok ngi”ga tarjima qilgan. Chiong Vin Ki “Fransuz-vyetnam lug'ati” (1884) va “Vyetnam-fransuz lug'ati” (1887) muallifi bo'lib; fransuz tilida ikki jildli (1875 va 1877) “Vyetnam tarixi” asarini yaratgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida fransuzlar tomonidan Hindi-Xitoyning zabt etilishi natijasida vyetnam adabiyotida tushkunlik yuz beradi. Mamlakatga bostirib kirgan mustamlakachilar xalq san'atini oyoq osti qiladilar, o'zlarining madaniyatlarini o'rnatishga urinib, Vyetnam xalq tilini tahqirleydilar. Bu ishda ularni davlat amaldorlari bilan mulkdorlar qo'llab-quvvatlaydilar. Biroq ilg'or vyetnam adiblari har qanday qiyinchiliklarga qaramay milliy adabiyotni himoya qiladilar. Ular mustamlakachilik zulmi sharoitida hozirgi zamon vyetnam adabiyotining poydevorini quradilar.

Vyetnamda XX asrning birinchi choragi – voqealarga boy jo'shqin davr sifatida tarixda qolgan.

O'sha yillarda Vyetnamda Sokrat, Iflatun, Aristotel, Bekon, Dekart, Monteske, Volter, Russo, Darvin, Adam Smit, Spenserlarning nomlari ilk bor eshitildi. Tashqaridan kirib kelayotgan axborotning juda katta oqimi vyetnam jamiyatining dunyoqarashini kengaytirdi, barcha ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarga, yangilanishlarga intilishni uyg'otdi.

XX asr boshida Vyetnamdagi ma'rifatparvarlikning keng harakati taniqli olim, adabiyotchi va ensiklopedist Le Kuy Don (1726-1784)ning nomi bilan bog'liqdir. U “Shutszin” (“Tarix Kitobi”)ning tarjimoni va sharhlovchisi, turli falsafiy, tarixiy va adabiy asarlar muallifi edi. Asarlarining orasida birinchi vyetnam ensiklopediyasi

va birinchi mualliflik asari bo'lmish “Turli so'zlarning eng baland minorasi” alohida o'rin tutgan (Le Kui Don davrda asosan xitoy ensiklopediyalari o'qilar edi).

“Turli so'zlarning eng baland minorasi” o'ziga to'qqizta faslni oladi: kosmogoniya, kosmografiya, geografiya, tizimlar va o'rnatilgan narsalar, adabiyot va san'at, til va yozuv, kitoblar, xalqni boshqarish usuli, tabiat predmetlari va ijtimoiy hodisalar haqida. Ma'lumotlarning aksariyatini Le Kuy Don qadimgi va unga zamondosh bo'lgan xitoy va vyetnam manbalaridan olgan edi. Shuningdek



muallif jahon geografiyasi boshlang'ich asosalari bilan tanishtirib turib, Min sulolasi davridagi Xitoyga safar qilgan katolik missioner Ferdinand Verbiyestning "Yerning geografik ta'rifi" kitobiga ishora qiladi.

Vyetnamda ma'rifatparvarlik harakati milliy ozodlik harakati bilan uzviy bog'liq bo'lib, undagi ishtirok etayotgan arboblarning aksariyati milliy chegaralanish doirasidan chiqib ketib, taniqli ma'rifatparvarlarga aylandi. 1904-yilda

birinchi

bor Vyetnamda "Vyetnamning yangilanish jamiyati" ni ta'sis etgan Fan Boy Tyau (1868 – 1940) ning safdoshi bo'lmish Fan Tyu Chin (1872 – 1926) xalqning ma'rifatida uning yashash darajasini ko'tarilishini ko'rgan. Fan Boy Tyau yoshlarni Yaponiyaga o'qishga borishini da'vat qilgan edi; keyinchalik bu da'vat "Dongzu" ("Sharqqa") nomini olgan harakatga aylandi. Fan Tyu Chin o'z mamlakatida ta'limning yangi yevropalik tizimini tatbiq etish kerakligini va o'rgatish jarayonida milliy lotinlashtirilgan "kuok ngi" yozuviga asoslanishni ta'kidlagan. Shu maqsadda Vyetnamning ko'pgina viloyatlarida maktablar ochilgan. Bu maktablarda "kuok ngi"da tabiiy fanlar, arifmetika, tarix va adabiyot, hattoki jismoniy tarbiya ham o'rgatilgan. Maktab dasturidan diniy kitoblarni o'qib, yod olish va she'r yozish mashqlari chiqarib tashlangan. O'quvchilar uzun kiyimlarda emas, balki yevropalik kiyimlarda, sochlarini kalta qilib kelishlari talab qilingan.

Ijtimoiy fikr tarixida Xanoydagi 9 oy davomida faoliyat ko'rsatgan "Tonkin ijtimoiy maktabi" ko'zga ko'rinar o'rinni egallagan (1907 – 1908). "Tonkin ijtimoiy maktabi" "kuok ngi"da o'z "Dang ko tung bao" ("Qadim zamon jurnali") gazetasini nashr etgan. Maktabda ta'lim uch tilda – vyetnam, xitoy va fransuz tillarida olib borilib, u yerda geografiya, tarix, tabiiy fanlar o'rgatilgan. O'quvchilar soni ming kishidan ortiq edi; maktabning asosiy maqsadlaridan biri – "kuok ngi"da darsliklarni tayyorlash va nashr etish edi. "Tonkin ijtimoiy maktabi" faollariga mustamlakachilar va hoinlarga nisbatan muhosabat, o'z vataniga sevgi-muhabbat va siyosiy, iqtisodiy va madaniy qaramlik (tobelik)dan ozod bo'lishga intilish xos edi. Ular feodalizm illatlarini yo'q qilishga, jahon tarixi va geografiya haqidagi bilimlarni tarqatishga, yevropalik mexanika yutuqlarini ishlab chiqarishda tatbiq etilishiga da'vat qilganlar. Ular "ekonomika", "evolyutsiya", "revolyutsiya" kabi g'arb atamalarini muomalaga kiritib, tilning lug'aviy tarkibiga bebaho hissa qo'shganlar. "Tonkin ijtimoiy maktabi" sodda, barchaga tushunarli, yaqqol ko'rinib turgan siyosiy mavzuga ega she'rlar, dostonlar, qo'shiqlardan iborat katta adabiy merosni qoldirdi¹.

XX asrning birinchi choragida publitsistikaning rivojlanishi ham ko'zga ko'rinadi. O'sha davrda adabiy hayotning markazlari hisoblanib, ikkita jurnal "Dong ziong" ("Hindxitoy", 1913 – 1917) va "Nam faung" ("Janubiy shamol", 1917 – 1934) faoliyat ko'rsatgan. Bu jurnallar zamonaviy shoir va yozuvchilar,

¹ Зимонина И.П. О просветительских тенденциях во вьетнамской новелле начала XX в –В кн.: Просветительство в литературах Востока. М., «Наука», 1973, Б. 45



mahorat maktabi, zamonaviy vyetnam adabiyotining tug'ilish joyi minbari sifatida xizmat qilgan. Aynan mazkur jurnallarning ma'rifatparvarlik faoliyati bir yarim o'n yillikdan keyin yangi milliy adabiyotning rivojlanishiga zamin yaratib bergan. Jurnallarning sahifalarida g'arb adabiyotining ko'plab tarjimalari nashr etildi: "Lafonten masallari", "Perro ertaklari", Molerning "Tartyuf" va "Dvoryanlikdagi meshchan" komediyalari, Lesajning "Dil Blaz", A.Prevoing "Manon Lesko", A.Dyumaning "Uch mushketyor", Dj.Sviftning "Gulliverning sayohati", O.Balzakning "Shagren terisi", Paskalning "Fikrlar" i, Dekartning "Usul haqida mulohazalar", shuningdek, xitoy klassikasidan tarjimalar – "Uch hokimiyat" va "G'arbga sayohat" kabilar shular jumlasidandir¹.

Vyetnam adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, XX asrda Vyetnamda yangi mazmundagi adabiyot vujudga kelganligi va rivoj topa boshlaganini guvohi bo'lamiz.

Vyetnamliklar uchun yangilik bo'lgan yangi davr nasriy janrlarining, xususan, yangi hikoyaning paydo bo'lishi, adabiyotning erkinlashuvi ushbu adabiyotni novator deb hisoblashga imkon beradi. Avvalambor, shuni ta'kidlab o'tish joizki, Vyetnam adabiyotida hikoya janrining kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ammo, vaqt o'tishi bilan an'anaviy hikoyalar o'rnini yangi tipdagi hikoyalar egalladi. Vyetnam hikoyanavisligi taraqqiyoti uchun xos bo'lgan ijodiy izdanishlarning shakllanishi 3 bosqichga bo'linadi. Jumladan: ma'rifatparvarlik davri, romantizm davri va realizm davri bosqichi.

Ma'rifatparvarlik davrida Vyetnamda matbuot va tarjima yetakchi o'rinni egalladi. Vyetnam xalqi o'z adabiy merosi hamda tariqqiy topgan G'arb adabiyotini chuqur o'rganib, uni o'zlashtirgan holda milliy adabiyotni rivojlantirishga bel bog'ladi.

Vyetnam hikoyanavisligi o'z rivojlanish yo'lida, xususan XX asrning 20-30-yillarida o'ziga xos romantik yo'nalishda taraqqiy etdi.

XX asrning 40-yillarida Vyetnam realistik yozuvchilari yangi yo'nalishlarni izlay boshladilar. O'sha paytlarda qahramon psixologiyasini chuqur o'rganish tamoyili kirib keldi. Ushbu tamoyillarni rus yozuvchilari Chexov va Dostoyevskiylar ijodi ta'sirida shakllangan bo'lib, ularning ijodi bilan esa fransuz tarjimalari orqali tanishganlar².

O'sha yillardagi Vyetnam realistik adabiyotini Nam Kao va Nguyen Kong Xoanlarning nomlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Nguyen Kong Xoan Vyetnamning tajribali yozuvchilaridan biri. Jumladan, satirik va yumoristik hikoyalar yozishda iste'dodli yozuvchi Nguyen Kong Xoanning xissasi katta bo'lgan. U asosan "oddiylikning mantiqsiz ekanligini" ochib berishga harakat qilgan, ya'ni yarim feodal mustamlaka bo'lgan Vyetnam uchun odat bo'lib qolgan mantiqsizlikni ko'rsatgan. Uning "Telba" ("Thằng điên", 1935)

¹ Зимонина И.П. О просветительских тенденциях во вьетнамской новелле начала XX в –В кн.: Просветительство в литературах Востока. М., «Наука», 1973, Б. 45.

² Никулин И.Н., Вьетнамская литература. М.: Наука, 1971. 650 с



nomli hikoyasida bir kambag'al dehqon shaharli badavlat janobga musibatida yordam beradi, janob esa uni mehmonga taklif qiladi. Bechora soddaligi tufayli haqiqatdan boyning uyiga keladi. Boy esa uni tanimasdan, telba deb haydaydi. Dehqonning qilgan ishi mantiqli, chunki u masalaga insonparvarlik yuzasidan yondoshgan, ammo, boy kambag'alni haydab bu ishni mantiqsizlik ekanini ko'rsatgan.

Nguyen Kong Xoanning hikoyalarida turli xildagi hajviy ma'nolarni topish mumkin. Shuningdek, istehzodan grotesk gacha bo'lgan moyillik yozuvchining asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi¹.

Nguyen Kong Xoan asosan tanqidiy nishon sifatida – poraxo'rlik va sudxo'rlikda ko'milib ketgan amaldorlarni, oddiy xalqning qurqoqligidan foydalangan qishloq boshqaruvchilarini, zamindorlarni tanlagan. Nguyen Kong Xoanning hikoyalarida jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ko'tarilganligi sababli katta sotsial o'tkirlik seziladi.

Vyetnam tanqidiy realizm adabiyoti badavlat burjua, yer mulkdori va amaldorlarni, eski tuzumdagi ijtimoiy hayotni kulguli, hatto masxara darajasiga kutarganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, yozuvchi o'zining "Berk kucha" nomli asarida amaldorlar va "xalq deputati" Layning masxara obrazini yaratgan. U giyohvand, fitnachi va qonhur bo'libgina qolmay, ayyor qilmishlari bilan dehqonlarni urishtiradi, ularni xonavayron qiladigan sudlashuvga olib keladi, ularni qarzlarga botirib, yerlarini tortib oladi. Uning qurbonlaridan biri – yosh dehqon Fa ismli yigit. Hikoya mobaynida yozuvchi Faning evolyutsiyasini ko'rsatadi, ya'ni amaldorning va'dalariga so'zsiz ishongan, soddadil va qurqitilgan qishloq yigitidan, ziyrak va dadil odamga aylanadi va o'z huquqini himoya qila boshlaydi. Asar so'ngida Fa amaldorlar va "xalq deputati" Layning ustidan g'alaba qozonadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Nguyen Kong Xoan barcha asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ko'targan va ushbu muammolarning sababchilarini xajviy tarzda tanqid qilgan.

Tanqidiy realizm vakili Nguyen Xong ham o'z asarlarida tanqidiy realizmning belgilarini yoritib bera olgan. Uning "O'g'ri qiz" hikoyasi - aldangan va tashlab ketilgan qishloq qizi Bin to'g'risida. Amaldorlar undan bolasini tortib olishadi, u esa Xayfonga qochadi va u yerda "Ishratxona"da ishlashga majbur bo'ladi. Bin u yerda o'g'rilarning sardori bo'lgan Namni uchratadi. Nam obrazi romantik planda tasvirlangan (muallif uni o'zicha yoqimli, bag'ri keng va do'stlar bilan oliy janob munosabada bo'ladigan shaxs qilib ko'rsatadi). Nam Binga uylanadi va uni o'zining "o'g'rilik hunari" ga o'rgatadi.

Asarda baxtsiz ayolning azob chekish mavzusi psixologik-axloqiy jihatdan keng yoritilgan:

...Binh yeu Nam, nhing anh ay yêu đến cô tôi, thì còn gì bằng nữa Tôi hôm nay, cuối trồng canh hai, xin mời ông lại chơi nói chuyện

¹ Рассказы вьетнамских писателей. Изд. Москва 1960. 130 с.



....Bin Namni sevadi, ammo uning nopok, vijdotsiz hayotidan qiynalar edi. U o'g'rilar dunyosi ichidan insoniy uchqunlarni qidira boshlaydi ¹.

Hikoya yakuni fojiali yakun topadi. Nam qimmatbaho narsalarni o'g'irlamoqchi bo'lganida tasodifan bir bolani pichoqlab qo'yadi, bu bola esa Binning o'g'li bo'ladi. Bin va Namni hibsga olishadi. Shunday kilib Bin halol va mehnatkash hayotidan voz kechgani uchun jazo oladi. Muallif uning fojiali takdiri negizini jamiyat hayotidagi turli xil vaziyatlarni tasvirlaydi.

Demokratik front davrida realist yozuvchilarning asarlarida – mehnatkashlar manfaatlari uchun kurashuvchi himoyachi obrazi paydo bo'ladi. Nguyen Xong "Xitoylik ona" hikoyasidagi oddiy xitoy ayoli obrazi shunday tasvirlagan:

...Cô từ một người bình thường, không khác gì những người tị nạn Trung Quốc bất lực khác, bị áp bức bởi nghèo đói và những lo toan thường ngày, trở thành một chiến binh vì sự nghiệp của giai cấp công nhân.

...U qashshoqlik va kundalik tashvishlardan ezilgan boshqa nochor xitoylik qochqinlardan farqi yo'q oddiy odamdan ishchilar sinfi yo'lidagi kurashuvchiga aylanadi.

Mazkur hikoyada kahramonning ruhiyati, ichki kechinmalari keng yoritilgan.

Nguyen Kong Xoanning oxirgi asari "Dehqonlar va yer mulkdorlari" nomli hikoyalar to'plami bo'lib, u kitobxonlar tomonidan juda katta qiziqish bilan qabul qilingan va hozirgacha sevib o'qilmoqda. Ushbu to'plamdan o'rin egallagan hikoyalar Nguyen Kong Xoanning ijodida asosiy mavzu hisoblangan dehqonlar mavzusiga bag'ishlangan. Uning yaratgan hikoyalari tilining ravonligi, obrazlarning haqqoniyligi bilan kitobxonlar diqqatini o'ziga jalb qiladi. Xususan, yozuvchining qishloq amaldori – xalq dushmani va munofiq kishi taqdirini tasvirlashga bag'ishlangan "Munofiq" nomli hikoyasini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Hikoyada butun umri davomida o'z xalqiga hiyonat qilib, dushmanlarning yordamchisiga aylangan May ismli amaldor haqida so'zlanadi. May mansab, obro' uchun o'zligidan, insoniyligidan voz kechadi. U dushmanlarga qo'shilib o'z xalqini azoblaydi va bundan zarracha afsuslanmaydi. Muallif ushbu hikoyasida kinoyani kuchaytiradi va hikoya yakunida o'z qahramoni, ya'ni munofiq insonni qilgan gunohlari uchun jazo olgan epizodini mohirona tasvirlab beradi. Shuncha yil davomida o'z xalqidan voz kechib dushmanlarga yordamlashgan May hikoya yakunida o'z ishini bitirib bo'lgan dushmanlar tomonidan otib tashlanadi. Munofiqning o'limi muallif tomonidan kuchli va ta'sirli iboralar orqali beriladi va bu bilan asarda eski hukmron sinf halokatining ramziy tasviri ko'rsatiladi.

...Chiếc xe tải lao đi như một con chim, và May nằm trên mặt đất với cánh tay dang rộng. Gió đùa giỡn với chiếc khăn lụa của cô, và cơ thể cô hiện rõ qua lớp áo rách.

Vào mùa thu, khuôn mặt của May không thể nhận ra, miệng và mũi cô bê bết máu đen....¹

¹ Tong Tap Van Hoc Viet Nam. Nha xuất bản khoa học xã hội – Hà nội 1980. Б.23



.... Yuk mashinasi qushdek uchib borar, May bo'lsa qo'llarini ikki tomonga tashlagan holda yerda yotardi. Shamol uning ipak sharfi bilan o'ynashar, yirtilgan kiyimlari orasidan uning tanasi ko'rinib turardi.

Haligi yiqilishda Mayning yuzi tanib bo'lmas darajada, og'zi-burni qop-qora qonga belangan edi....

Hikoyaning bunday yakun topishi bir tomondan Mayga achinish hissini paydo qilsa, yana bir tomondan kishini quvontiradi. Zero, May o'z manfaati yo'lida hattoki o'zining oilasi va qishloqdoshlarini qirib tashlashda faol ishtok etgan (yetakchi rolni egallaydi). Nguyen Kong Xoanning ushbu hikoyasi ham tamomila tanqidiy realizm yo'nalishida yozilgan bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar mohirona ochib berilgan.

O'sha yillar Nguyen Kong Xoan singari boshqa realist yozuvchilar ham o'zlarining yaratgan asarlarida dexqonlar mavzusini bosh mavzu qilib tanlaganlar. Keyinchalik esa realistik asarlarda dexqonlar mavzusi bilan bir qatorda shahardagi quyi qatlam hayoti mavzulari xaqida yoza boshlaganlar. Shuningdek, taniqli yozuvchi Nam Kaoning ijodida ham dexqonlar va shaharliklarning quyi hayoti mavzularini uchratishimiz mumkin.

Nam Kao (1917-1951) 40-chi yillarda Vyetnamda tanqidiy realizmning taniqli vakillardan bo'lgan. Mashhurlikni unga "Ti Feo" (1941) hikoyasi olib kelgan. Hikoyaning qahramoni – tubanlashib ketgan, doimo mast va may uchun har qanday jinoyatga tayyor Ti Feo hamma narsadan va hammadan g'azablangan inson edi. Ammo, shu mahluk qalbining tub-tubida insoniylik uchqunlari saqlanib qolgan edi. Hikoyadagi bitta tasodifiy epizod – uni ayol bilan uchrashuvi, Ti Feoda insoniylik uchqunlarini uyg'otadi va uni ichishni tashlab, insoniy hayotga qaytishiga sabab bo'ladi. Lekin, uni axloqiy tiklanishining behuda orzulari Ti Feoni o'limga olib keladi. Yozuvchi, o'z qahramoni uchun yangi hayotga bo'lgan real yo'lni ko'rmaydi, chunki jamiyatdagi sharoitlarda unga qulay bo'ladigan vaziyatlar yo'q edi. Natijada Ti Feo halok bo'ladi.

Mustamlaka-feodal jamiyatda o'z qobiliyatini ishlatish yo'lini topmagan, ijodiy mehnatkash inson fojiiyasi – Nam Kaoning sevimli mavzusi bo'lgan. Uning "Eskirgan hayot" ("Shong mon") nomli asari shular jumlasidandir. Hikoya qaxramoni – xususiy maktab o'qituvchisi Txi. U kuchga to'la va jamiyat uchun foyda keltirishini orzu qilib yashaydi. Ammo, uning hayoti bir kosa guruch tashvishida o'tardi. Txi ruzg'ordagi yo'qchilik botqog'idan chiqib ketishni juda xohlaydi, u erkin va yangi xayotni kutadi, lekin hammasi bekor edi.

Txi osongina taslim bo'ladiganlardan emas. Fikrlovchi, azoblanuvchi va yolg'iz odam, u faqatgina o'zi uchun emas, balki hamma uchun yaxshiroq kelajakni orzu qiladi. Txi o'sha davrdagi hayot tarzining shartlarini qabul qilishga tayyor emas edi.

"Anh ấy nghĩ rằng chừng nào một người bị ép lấy thức ăn từ nô lệ khác để hài lòng, trong khi một người bị buộc phải chà đạp người khác để không kéo mình vào

¹ Tong Tap Van Hoc Viet Nam. Nha xuất bản khoa học xã hội – Hà nội 1980. Б.65



đằm lầy, thì nhân loại sẽ vẫn còn bần thủ, độc ác. và ích kỷ. Cuộc sống này tự nó là thuốc độc.....¹

“U o‘ylardi – qachongacha bir odam to‘yib yeyish uchun boshqasining qulidan ovqatini tortib olishga majbur bo‘lsa, qachongacha inson o‘zini botqoqlikka tortib ketmasin deb boshqalarni oyoq osti qilishga majbur bo‘lsa, ushanda insoniyat iflos, shafqatsiz qolaveradi. Shu hayotni o‘zi zahar”.

Ikkinchi jaxon urushi boshlandi, yaqin orada inqilobning tozalovchi bo‘roni butun mamlakat bo‘ylab yoyildi. Ammo, xozircha sukunat, lekin Txi kutadi, hayot esa “eskiryapti”, maqsadsiz o‘tib ketyapti.

..... Ông ta chết không làm gì cả, không hiểu cuộc sống là gì...²

“.....u hech narsani amalga oshirmasdan, hayot nimaligini anglamasdan o‘ladi”.

Muallif, qahramonining ruhiy azoblaridan tashqari, uning harakatsizligini hayotini o‘zgartirish uchun hech narsa qilmaydigan qilib ko‘rsatadi. Nam Kao yaratgan hikoyalarning aksariyati realizmning ijtimoiy-psixologik chizig‘i ostida yaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, realizmning ijtimoiy-psixologik chizig‘i ostida yaratilgan asarlarda, asosan qahramonning ichki tuyg‘ulari, uning psixologiyasiga chuqur e‘tibor beriladi.

Nam Kao inson qalbining o‘tkir kuzatuvchisi, nozik tasvirchi va har turli tashqi ta’sirlarga begona, kishi sifatida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Nam Kao o‘zining sermahsul ijodiy faoliyati davomida yillar mobaynida mamlakat hayotida ro‘y berayotgan yangiliklar, o‘zgarishlar va inqilobning guvohi bo‘lgan hamda davr talabiga moslashgan holda ijod qilgan. Bunga misol qilib Nam Kaoning 1945-yillarda ijodida yuz bergan o‘zgarishlarni keltirishimiz mumkin.

Butun insoniyat uchun ahamiyatli 1945-yil Vyetnam tarixida ham katta o‘zgarishlar yili bo‘lgan.

Yosh respublikaning birinchi yili - qiyin, havfli va quvonchli bo‘lgan: qiyin – chunki mamlakatda ochlik, xo‘jaliklar vayron bo‘lgan; havfli – chunki ingliz, fransuz qo‘shinlari haliyam Vyetnam yerini bosib turar edilar, quvonchli – chunki xalq chuqur ijtimoiy o‘zgarish paytini anglagandi. Bu payt, eskicha qolib ketgan barcha narsalarning bo‘zilishi va yangisining yaratilish payti edi. Oldingi mustamlaka davlatning ijtimoiy va madaniy hayotida ko‘rinmagan o‘zgarishlar endi ko‘zga tashlanayotgan edi: Xanoyning o‘zida 50 ga yaqin gazeta va jurnallar chop etila boshladi. Tabiiyki, inqilobdan so‘nggi birinchi yil yangi adabiyotning tug‘ilish yili ham bo‘lgan³.

O‘tkir g‘oyaviy kurashlarda yangi adabiyot tug‘ilgan edi, uning rivojlanishining aniq yunalishlari haqidagi masala kun artibiga qo‘yilganida, “Eng avvalo biz xalq ommasi tomonida turishimiz va ishga kirishimiz kerak” - deb atoqli tanqidchi Dang

¹ Никулин И.Н., Вьетнамская литература. М.: Наука, 1971. 650 с.

² O‘sha asar B 663.

³ Литература Востока в новейшее время. изд. Московского университета 1977. 550 с



Txay May madaniyat xodimlarini shu ishlarni qilishga chorlagan edi. “Xalq bilan yashash, uning tashvishlarini anglash, uning fikrlari bilan fikirlash, umidlariga ishonch bildirish bizning vazifamizdir”¹.

Vyetnamning bu davrdagi adabiy jarayoni bundan avval mavjud bo‘lmagan yo‘nalishlarning shakllanishi va xilma-xilligi bilan ifodalanar edi.

Shunga ko‘ra, Nam Kaoning ijodida ham sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlana boshladi. Zero, o‘sha davrga kelib Nam Kao o‘z hikoyalarida jamiyat muammolarini fosh qilishga bo‘lgan intilishni kuchaytirdi. Endi uning hikoyalarida zulmga qarshi yakka kurashchi emas, balki, o‘zining kuchiga ishongan xalq ommasi turar edi. Bunga misol qilib uning “Jasur ayol” hikoyasini keltirishimiz mumkin. Hikoyada yozuvchi hukumat tomonidan amalga oshirilgan o‘g‘rilik, nohaqlik kabi adolatsizliklardan g‘azablangan dehqonlarning ommaviy ko‘tarilish manzarasini mohirona tasvirlab beradi.

Hikoyaning bosh qaxramoni Nyun obrazi yangi odam, zulm dunyosiga qarshi chiqqanlarning, ommaning yo‘lboshchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

U hamqishloqlarini bir yoqadan bosh chiqarishga hamda birlashib nohaqliklarga chek qo‘yish sari da‘vat etadi. Hikoyaning kulminatsiya nuqtasi Nyunning maqsadiga erishishi, ya‘ni barchani birlashtirgan holda o‘g‘ri, tekinho‘r amaldor va mulkdorlarini fosh qilishi, ularga jazo berishga sazovor bo‘lishi bilan ko‘rsatiladi. Tabiiyki, ushbu epizod hikoyaning yechimi bo‘lishi mumkin edi, ammo, muallif ushbu hikoyasida ham o‘zining sevimli mavzusi – mehnatkash insonning fojeasidan voz kechmaydi. Hikoya Nyunning og‘ir hastalikka duchor bo‘lishi va bevaqt dunyodan ko‘z yumishi bilan yakun topadi.

Vyetnamda eng ko‘zga ko‘ringan hamda barcha kitobxonlarning sevimli yozuvchisiga aylangan, mashhur realist Nam Kaoning yaratgan asarlaridagi ta‘sir kuchi va badiiy go‘zallik shundan iborat ediki, u zamonaviy hayotni - yangi badiiy usullar bilan ochishga harakat qilar edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, XX asrning boshlariga kelib vyetnam adabiyotida juda tezlik bilan zamonaviy janrlar vujudga keldi. An‘anaviy janrlar yo‘qolib, hikoyali dostonlar o‘rniga yangi tipdagi hikoya paydo bo‘ldi.

Yangi tipdagi hikoyalar an‘anaviy hikoyadan ancha farq qilgan holda, to‘qima o‘rniga kundalik hayotga idrokli qarash, mo‘jiza va evrilishlar o‘rniga haqiqiy voqealikni tasvirlash yuzaga keldi.

Shuningdek, XX asr boshlarida vyetnam hikoyanavisligida uslub va tildagi aniqlik, lo‘ndalikni kuzatishimiz mumkin. Og‘ir, murakkab konstruksiyalar, tushunarsiz konfutsialik iboralardan, xitoy tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar va arxaizmlar (eskirgan, muomaladan chiqib ketgan so‘zlar) dan qutilishga harakat qilgan yozuvchilar aniq va ravshan nasrni yarata boshladilar. Qolaversa, vyetnam adabiyoti yangi davr hikoyasi bir muncha omillarga tayanganini guvohi bo‘lamiz.

¹ O‘sha asar B 551.



Zero, vyetnam adabiyoti yangi davr hikoyalariга an'anaviy hamda adabiy meros omil bo'libgina qolmay, G'arb adabiyotining ta'siri ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

XX asr Vyetnam realistik hikoyalariining o'ziga xosliklariga to'xtaladigan bo'lsak, hikoyalarda voqealar tizimi tabiiy ravishda kechib, asarning tub mohiyati va g'oyasini ochishda yozuvchilar tashqi detallar va nafis chizgilardan unumli foydalanganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Iqtisod-moliya. 2007. – 304 b.
2. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: Akademnashr, 2010 – 304 b.
3. Umirov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 262 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. -558b.
5. Nosirov O'.N. Obrazlarda uslub jilolari. –T.: Fan, 1991. – 196 b.
6. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston, 1997. – 415 b.
7. Adabiy turlar va janrlar. – T.: Fan, 1991. 1-jild. -383 b., 2-jild. 1992 – 246

Rus tilidagi adabiyotlar:

8. История всемирной литературы.. М.,Наука, 1989
9. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени. X-XIX вв Никулин Н. И. М.,Наука, 1989
10. Никулин Н. И. Вьетнамская литература [на рубеже XIX и XX веков]
11. Литература Востока в новейшее время. изд. Московского университета 1977. 550 с.
12. Литература и фольклор народов Востока. – М.: Наука, 1967. - 267 с.
13. Никулин И.Н., Вьетнамская литература. М.: Наука, 1971. 650 с.
14. Рассказы вьетнамских писателей. Изд.Москва 1960. 130 с.
15. Зимонина И.П. О просветительских тенденциях во вьетнамской новелле начала XXв –В кн.: Просветительство в литературах Востока. М., «Наука», 1973

Vyetnam tilidagi adabiyotlar:

16. Tổng Tập Văn Học Việt Nam,– Ha noi, 1980. - 350 б.
17. Văn học dân gian các dân tộc – Ha noi, 1959. - 320 б.
18. Tho van Nguyen Khuyen – Ha noi, 1971. - 478 б.

Internet saytlari:

19. www.wattped.com
20. www.vietnamise.com
21. www.facebook.com
22. www.thegioi.vn